



History of political and diplomatic relations between the Khiva Khanate and the Emirate of Bukhara in 1806–1842 on the basis of “Riyaz ud-davla” by Agahi

Jurabek POLVONOV¹

Tashkent Military-Academic Lyceum “Temurbek School”

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023
Received in revised form
15 June 2023
Accepted 25 June 2023
Available online
15 July 2023

Keywords:

Khorezm,
Bukhara,
Munis,
Agahi,
“Firdavs ul-iqbol”,
“Riyaz ud-davla”,
“Zubdatu-t-tavorix”,
“Jome ul- voqeoti sultoniy”,
“Gulshani davlat”,
“Shahidu-l-iqbal”,
Amir Haydar,
Muhammad Rahimkhan I,
ambassador,
Khalfa,
dargah,
S. Zhukovsky,
letter.

ABSTRACT

This article is based on the history of the embassy service in Uzbekistan, its important stages and procedures, as well as sources on the diplomatic relations between the Khiva and Bukhara emirates in 1806–1842 years, which existed in the Middle Ages in our country. It focuses on the “embassy service”, the ceremonies of welcoming and receiving ambassadors, the skills of the ambassadors, and the relationship between Allaqlikhon and Nasrullah, based on primary sources.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp143-150>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ History teacher of Tashkent Military-Academic Lyceum “Temurbek School”. E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar tarixi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Xorazm,
Buxoro,
Munis,
Ogahiy,
"Firdavs ul-iqbol",
"Riyoziy ud-davla",
"Zubdatu-t-tavorix",
"Jome ul-voqeoti sultoniy",
"Gulshani davlat",
"Shohidu-l-iqbol",
Amir Haydar,
Muhammad Rahimxon I,
elchi,
Xalfa,
dargoh,
S. Jukovskiy,
xat.

Ushbu maqola O'zbekistonda elchilik xizmati tarixi, uning muhim bo'g'ichlari va tartib-qoidalarini hamda o'rta asrlarda Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan Xiva va Buxoro amirligining 1806–1842-yillardagi o'zaro diplomatik munosabatga doir manbalarga tayangan ma'lumotlar jamlangan. Unda asosiy e'tibor "elchilik xizmati", ya'ni elchilarni kutib olish va qabul qilish marosimlari, elchilarning mahorati hamda Olloqulixon va Nasrulloning o'zaro munosabatlari birlamchi manbalar asosida ochib berishga harakat qilingan.

История политических и дипломатических отношений между Хивинским ханством и Бухарским эмиратом в 1806–1842 гг. на основе «Рияз уд-давля» Агахия

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Хорезм,
Бухара,
Мунис,
Агахи,
«Фирдавс ул-икбол»,
«Рияз уд-давля»,
«Зубдату-т-таворих»,
«Джоме ул-ваджоти султоний»,
«Гульшанское государство»,
«Шахиду-л-икбал»,
Амир Хайдар,
Мухаммад Рахимхан I,
посол,
Халфа,
даргах,
С. Жуковский,
письмо.

Данная статья основана на истории посольской службы в Узбекистане, ее важных этапах и процедурах, а также источниках по дипломатическим отношениям Хивинского и Бухарского эмиратов в 1806–1842 гг., существовавшим в средние века в нашей стране. Основное внимание уделяется «посольской службе», церемониям встреч, приема и мастерству послов, и отношениям между Аллакулихоном и Насруллоем на основе первоисточников.

DOLZARBLIGI

Globalashuv va integratsiya jarayonlari kuchayayotgan bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib borayotgan bir davrda, shu jumladan, qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganish dolzarb mavzu sanaladi. XIX–XX asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarni tadqiq etish

orqali Xiva xonligining qo'shni Buxoro amirligi bilan bo'lgan diplomatik munosabatlari tarixiga doir ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Maqolada Xiva xonligining Buxoro amirligi bilan siyosiy va diplomatik aloqalariga oid bo'lgan ma'lumotlar ilmiylik, tarixiylik, xolislik qiyosiy tahlil tamoyillari asosida yoritilgan.

Mavzu bir qator Xorazm solnomalari, jumladan, Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", "Zubdat ut-tavorix", "Jomeal voqeati sultoniya", "Shohidu ul-iqbol", Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" nomli va xonlikka tashrif buyurgan sayohatchilar N.N. Muravyov, A. Vamberi kabilar hamda tarixchi olimlar M.Yu. Yo'ldoshev, Q. Munirov, Sh. Vohidov kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarida xonlikning qo'shni davlatlar bilan o'zaro diplomatik munosabatlari haqidagi bir qancha ma'lumotlar keltirilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyoziy ud-davla", "Zubdatu-t-tavorix", "Jome ul-voqeati sultoniya", "Gulshani davlat", "Shohidu-l-iqbol" va Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" kabi tarixiy asarlarida XVII–XVIII asr diplomatik munosabatlar tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar keltirilsa-da, Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronlik qilgan davrdan boshlab bo'lgan tarixiy voqealar, o'zgarishlar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot batafsil bayon etilgan. Xivadagi qung'irotlar sulolasi vakillarining Buxoro xonligi bilan davom etib kelayotgan diplomatik aloqasi Xiva xoni Eltuzarxon (1804–1806) ning vafotidan so'ng ma'lum vaqt uzilib qolgan edi.

Eltuzarxonning haloqatidan so'ng taxtga o'tirgan uning ukasi Muhammad Rahimxon I (1806–1825) davrida xonlik hududida ichki urushlarga chek qo'yildi. Markazlashgan davlat apparati mustahkamlandi. 1825-yil Buxoro hukmdori Amir Haydarning tashabbusi bilan Buxoro va Xiva xonlari o'rtasida yarash bitimi imzolandi. Ushbu diplomatik munosabatlar 1811–1812-yillarda Amir Haydar o'g'lining to'yi munosabati bilan Xorazmga Muhammad Rahimxon I oldiga O'roqboy Jo'ra oqosi va Avaz Muhammad yasavulboshini elchi qilib yuborish bilan tiklangan edi [1]. Xorazmga elchilar kelgan vaqtda Muhammad Rahimxon I Orol ustiga yurish qilgan bo'lib, u yerda edi. Qutluq Murod inoq, Yor Muhammadbek orqali Buxoro amirining nomasini xonga yetkazadi. Bu kelgan elchilarga Hasan Murod otaliq va Qandum sardorni qo'shib Buxoroga yuboradi. Buxorodan bular bilan birgalikda Yaqub Qo'rchi begi va Gul yasovul Xivaga elchi bo'lib keladilar. Xivadan esa Berdi inoq elchi qilib Buxoroga yuboriladi. Xiva elchisi Buxoro amiri bilan turkman takalar masalasi bo'yicha suhbat qiladi. So'ngra u bilan Xivaga Musoxo'ja O'roq va Muhammad Jo'ra oqasi elchi bo'lib keladilar [2].

Munis, Ogahiy va Bayoniy tomonidan yozib qoldirilgan dalillar, shubhasiz, O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Lekin ular o'z asarlarini yozar ekanlar, ko'p masalalar haqida gapirishsa-da, ularning tafsilotini yoritmaydilar. Ya'ni ularning asarlarida: "1231(1815–1816)-yili Kandum sardorni Buxoroga elchi qilib yubordi. Ramazon oyining 10 da, shanba kuni Buxoro elchisi Nurmuhammadbek Xivaga keldi" kabi ma'lumotlar uchraydi [3]. Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi hududlarini Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakatlari boshlangan edi. Aynan shu masalada Xiva bilan Buxoro o'rtasida kurash boshlanib ketadi. 1817-yilgi Chorjo'y qal'asi yaqinidagi birinchi to'qnashuvda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Shunga qaramasdan, Muhammad Rahimxon I Buxoro hududlariga 1820, 1823, 1824-yillarda talonchilik urushlari qilib turdi.

Olloqulixon Xuroson viloyatlarida o'z hukmronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marotaba yurish qildi. 1826-yilda Xiva qo'shinlari Shimoliy Xurosondagi Oqdarband qal'asini zabt etdi. 1828–1829-yillarda bu hududdagi Jalqon qal'asi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi. “Riyoziy ud-davla” asarida bu haqda qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Xivaning Olloqulixon xonligi davrida (1825–1842) Buxoro taxtida Amir Haydar (1800–1826), Amir Husayn (4 oy), Amir Umarxon (9 oy) va Amir Nasrullolar (1827–1860) o'tirdilar. Amir Husayn va Amir Umarxonlar qisqa vaqt hukmronlik qilganlari sabablimi, ular davrida Xorazm bilan qanday aloqalar bo'lganligi xususida “Riyoziy ud-davla”da hech narsa deyilmaydi. Amir Haydar va Amir Nasrullolar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar ko'p uchraydi.

Asarda Xivadan Buxoroga borib qaytgan elchilar to'g'risida shunday deyiladi:

“Hamul kecha a'lam-ul-ulamo hazrati Eshonxoja mufti va akbar-ul-kubaro Davlat Qorako'z mahram Xuroson tarafga boshlamasdan burun jumadul-avval oyining o'ninchi kuni Buxorodan kelgan elchilarga qo'shib, ul viloyat hokimi Bahodirxonga (Nasrulloxonga) inoyatnoma yuborgan edilar. U yerdan qaytib xonning (Nasrulloning) duo va salomini yetkazdilar” [4].

Ogahiyning yozishicha, Muhammad Rahim I davridan boshlab, Marv viloyatining hokimi bo'lib kelgan Soatquli sardorni mulozimlari bilan birgalikda besh-o'nta mahalliy bezorini bosh qo'shib qatl etadi va muqarrar jazodan cho'chiganlar Buxoro xoniga sovg'a-salomlar bilan 30 kishidan iborat elchi yuborib, o'z himoyasiga olishligini iltimos qilishadi. Nasrulloxon odamgarchilik yuzasidan ularni yaxshi qabul qiladi, alohida izzat-ikrom ko'rsatadi, lekin javob berishga shoshilmaydi. Shunda elchilar xavotir olib, takroran murojaat etishga majbur bo'ladilar [5].

Amir arkoni davlatga elchilar ahvoli kayfiyatini aytib, majlis qilib saroy a'yonlaridan maslahat so'raydi. To'planganlarning har biri o'z fikrini bildiradi. Ammo hech qaysining so'zi podshohga ma'qul tushmaydi. Shunda ziyrak qushbegi shunday deb qat'iy javob beradi: “Bevafolik soruq jamoasining tug'ma qonida bor va behayolik ular uchun oddiy odat. Bo'lmasam, Xorazm podshohligidan benihoya in'om, ikrom va saxovatlar ko'rib, uning podshohiga muncha xiyonat va ko'rnamakliklar fosh qilisharmidi?! O'tmishdan ma'lumki, ular hech kimga vafo qilmaganlar va qo'llaridan nomardlik javobidan o'zga hech ish kelmagan. Har kim soruq xalqi nomidan kelgan bu xudbin kimsalarning so'zlariga e'tibor berib, ularga yordam bersa, kuch bilan o'z boshiga ofat keltiradi va do'stlarni dushmanga aylantirishga sabab bo'ladi. Xorazm mamlakatining hukmdori Olloqulixon bilan necha yildan beri oralaringizda do'stlik va hamjihatlik binosi mustahkamdur. Bu do'stlik kayfiyati baxtidan barcha xalq bahramand va xotirjam bo'lib, huzur-xalovatda hayot kechirmoqda. Tashvish va xusumat paydo qilmoq, aqldan bag'oyat uzoq va uzoqni ko'rmoqlikdan yiroqdur...” [6].

Buxoro amiri Nasrulloxa ushbu vazirning so'zi ma'qul tushib, elchilarga muloyimlik bilan muomala qilib, to'nlar kiydirib ruxsat beradi, ammo ko'mak va nazoratchi yuborishlikka biroz fursat so'raydi.

Muallifning yozishicha, bu voqeadan o'ttiz kun o'tgandan so'ng fitnaga bosh qo'shgan Marv qal'asidagi oqsoqollar yanada vahimaga tushib, savdogarlar qiyofasida Buxoro xoni Nasrulloxon oldiga borib, ko'mak so'raydilar. Xon ularga qipchoq Odina qorani qirq besh otliq bilan qo'shib, Marv viloyatiga yuboradi. Bu voqedan so'ng Abdurahmon xalfa va qozi Muhammad Nazar boshliq ba'zi el va saroy ahllarini “Buxoro xoni hukmiga bo'ysunmaymiz va yuborgan kishisiga ishonch hosil qilmaymiz”, deb ittifoq

bilan Xiva xonining hukmida bo'lgan Saraxs yurtiga ko'chiradi. Qal'a ahli ba'zilarning maslahati bilan kelishib, Olloqulixon dan yordam so'rab: "Biz gumrohlarga bir ishonchli va ishbilarmon kishini elchi qilib yuborsinlar" – deb O'ri Shayx ismlik ko'pni ko'rgan kishini poytaxtga safarbar qiladilar [7].

Ramazon oyining beshida, payshanba kuni O'ri Shayx Xivaga yetib kelib, xos mulozimlar orqali keltirgan xabarni xon haziratdariga yetkazadi. Olloqulixon ularning iltimoslariga binoan xonlikning ishonchli mulozimlaridan Bekish xalifani O'ri Shayxga hamroh qilib Marv o'lkasi sari ijozat berib kuzatib yuboradi [8].

Bekish xalifa qo'liga farmon tutishi bilan poytaxtdan chiqib, tezlik bilan O'ri Shayxning hamrohligida Marv viloyatiga, soriqlar suhbatiga yetadi. U majlisda otashin so'zlab, ularning buzg'unchilik yo'lida qilgan ishlari yo'lidan adashishdir, imon bilan muhabbat izhorida qilgan da'volari boshdan-oyoq nodurustdir, deydi. Xalifaning otashin nutqidan so'ng fitnachilar orasida sarosimalik boshlandi.

Ogahiy hikoyatini bunday davom ettiradi: "Xalfa nasihat tariqaisda til nayzasi bilan ularning dilu joniga zahmi kori yetkazdi. Ulardan ba'zi baxtiqaro, so'zga chechanlari o'zlarini namoyishkorona tutib, xalfaga Odina qori boshliq bir necha buxorolikni ko'rsatib, dedilarkim: "Mana Buxorodan kelgan pushti panohimiz. Endi hech kimga ehtiyoj va xavotir oladiganimiz yo'qdur" [9] – deyishdi."

Xalfa ularning so'zlaridan ne hol va ne xayolda ekanliklarini bilib, devonavor va hazil aralash so'zlarining barobarida tanbeh bilan dashnom beruvchi so'zlar aytib, qaytishga qaror qildi. Xalfaga xayrixoh bo'lgan ba'zi oqibatli kadxudolar, ularni devonalikka nisbat berib, uzrlar aytdilar va xalfa ko'ngliga bir nav taskin berib, yurt tarafiga uzatdilar.

Xalfa Marvdan chiqib, tezlik bilan poytaxtga qaytib kelib, isyon ahlidan ko'rgan-eshitganlarini davlatning tegishli arboblarga ma'lum qildi. Olloqulixon bildiki, podshohona mulozamat va xushko'ngil mehribonlik bu bedavlatlarga foyda qimaydi va qurol kuchidan o'zga chora bu ikkiyuzlamachilar dardiga foyda bermaydi. Baloga girifdor bo'lgan bu jamoaga tanbeh berishgina emas, balki hukmronlik nuqtai nazaridan ham o'ylab qaror qildi. Xalqparvarlik va muruvvat yuzasidan Marvda o'tirgan taka ulusining kattalari, xonning jon fido qiluvchi, ixlos shoir mulozimlaridan Chaharyor Quliboy, Boboboy va O'rozyog'liklarga Ashur ismlik taka bilan quyidagi yorliq yubordi:

"Agar bir dargoh(xolik) mulozimlariga muhabbat rusumin fosh qilsangiz, soruqlar bila qo'shnicilik qoidasini buzib, ul badbaxtlarga nisbatan hurmatsizlik ko'rgazing. Elu ahllaringizni bir chekkaga elitib o'tiring [10]. Ular bilan borish – kelish munosabatini tark eting, tokim ul fasodchilar shumligidan siz xalqning molingizga zarar va joningizga xatar yetmasin".

Buxoro hokimining noloyiq xulqidan Olloqulixonning ko'ngliga g'ubor tushib, uning ko'nglini bilish uchun quyidagi mazmunda noma yozdirdi:

"Do'stlikka vafo qilishlik fazilatli kishilarga yot emasdirkim, bir tarafdin muhabbat bog'ining gullariga va beto'xtov parvarishlar bo'lganda, ikki tarafdin ham shunday sobit qadamlik munosabati bo'lsa samarasi bundan ham a'lo bo'lar edi. Agar kim do'stlikdan or qilib, dushmanlikni ustun qo'ysa bu haq taqdirdur, albatda bu qancha vaqt va zamon o'tsa ham sirligicha qolib ketmaydi".

Va maktubni davlatning ishonchli mulozimlaridan, sadoqatli Gadoyniyoz mahramga topshirib:

“Agar Buxoro xoni qirgan qilg‘iliklarini davom ettiraversa, aytgilkim, Marvga ilg‘or tariqasida yuborgan navkarlarini qaytarib olsin. Bo‘lmasa urush va talash qilamanki, keyin zoe‘ yo‘qotgan narsalari uchun ginaxonlik va yig‘i-nola qilib yurmasin”, – dedi [11].

Gadoyniyoz mahram tegishli yo‘riqnomalar olgandan so‘ng tezlik bilan Buxoroga yo‘l oladi. Nasrulloxonning huzuriga borib, tayinlangan gaplarni aytib maktubni unga topshiradi. Noma mazmuni bilan tanishgach, (Nasrulloxon elchiga) katta iltifotlar ko‘rsatib, Gadoyniyoz mahramni saroyi oliyga tushurib, uning izzat va ehtiromiga yarasha xizmat qilishlarini tayinlab maxsus kishi tayinlaydi. Nasrulloxon saroy ayonlari bilan majlis qilib bir noma yozdiradi, mazmuni har ikki davlat do‘stligini mustahkamlash va qilgan qiliqlari kechirilishga umidvorligi haqida edi. Bu nomani Gadoyniyoz mahramga berib, yana ko‘p e‘zoz va dilnavozliklar qilib, uzr tariqasida: “Mavr viloyatiga qo‘shib yuborishi bir necha zaruriy ishlar jihatidan bo‘lganligi, gina va tashvish yetkazish maqsadida emas edi”, – deb, bu so‘zlarning nechog‘lik rostligini isbotlash uchun e‘tiborli amirlaridan Qandahor to‘qsobani Gadoyniyoz mahramga qo‘shib, Xorazmga yuboradi. “Gadoyniyoz mahram mazkur to‘qsoba bilan dargohi olampanoh (Olloqulixon) ziyoratiga musharraf bo‘ladi. Buxoro podshohining muhabbat mazmuni bilan yuborgan nomasini topshirib, ul podshohdan eshitgan so‘zini va o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Marv takasiga yorliq olib ketgan Ashur sardor ham bu asnoda kelib ul xalqning yorliq mazmunini qabul etganlarini bildiradi” [12].

Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asaridan ma‘lum bo‘ladiki, ikki xonlik orasida diplomatik aloqalar orqali do‘stlik rishtalari bog‘lanadi va Marv viloyati Xiva xonligi tasarrufida qoladi.

Ogahiyning hikoya qilishicha, Olloqulixon safardaligi davrida Oqrabot degan joy manzilga yetib kelganda, u yerlik aholi xonga murojaat qilib, ko‘p mehribonliklar ko‘radi. Bu paytda Buxoro xonligi bilan do‘stona aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u, ya‘ni Buxoro tomonidan faqat yaxshiliklar ustiga yaxshiliklar bo‘lib turadi. Buxoro xonligi hududi bo‘lmish Qorako‘l va Eljikdan kelgan bir guruh tojiklar ko‘plab hayvon va mollari bilan Xiva xonligi hududidagi Ucho‘choq degan, mollar uchun sero‘t, yaylov atrofiga ko‘chib kelib o‘zlarini barcha ofatlardan xoli, Xivaning teng huquqli fuqarosi deb hisoblaydilar [13]. Shuningdek, Buxoro ulusidan ba‘zi savdogarlar yo‘lni notinch bilib karvonsaroydan chiqa olmay qolgan edilar. Olloqulixon huzuriga tashrif buyurgan buxorolik elchi Qandohor to‘qsobaga ko‘p ehsonlar berib, yaxshi so‘zlar bilan yurtiga qaytishga ruxsat beradi. Ularga qo‘riqchilar qo‘shib barchasini kema bilan daryodan o‘tkazib, omon-eson o‘z yurtlariga kuzatadilar [14].

Tarixiy hujjatlarining shohidlik berishicha, Olloqulixon davrida qo‘shni Buxoro bilan uzoq vaqt yaxshi qo‘shnichilik aloqalari o‘rnatilgan. Lekin bu hol XIX asrning 40-yillari boshiga kelib buzulib, ikkala xonlik orasida urush bo‘lishigacha yetib keladi. Buning sabablari to‘g‘risida Ogahiy “Riyoz ud-davla” asarining “Hazrati shahanshoh Qufron dastgoh bila Buxoro hokimi Amir Nasrulloning orasig‘a nizo tushmog‘ining kayfiyati va muvofaqat ohangi tuzulmog‘ining ma‘rifati”, – deb nomlangan bobida

quyidagicha hikoya qiladi: “Ollohning cheksiz ilohiy madadi tufayli Olloqulixonning shuhrati yildan yilga orta borib atrofi jahonni tutdi. Ba’zi ichi qoralar, shu jumladan, Buxoro amiri Nasrullo buni ko’rolmay fasod bo’ldilar. Aslida uzoq yillardan beri ikki xonlikning fuqarolari hamjihat bo’lib, to’kin-sochinlikda xotirjam va osudahol edilar. Oxir (Nasrulloxonning) buzuqlik hulqi va yomonlik fikrlashi taqozasi bilan rashku hasad nishi xotiri buzuq niyatli ba’zi fe’llari yomon ishni keltirib chiqardi-ki, do’stlik rishtalari uzilib o’rtaga nizo soldi [15]. Ul jumladan uning qilgan ba’zi ishlarini bayon etmoqlikni lozim ko’rdi. Chunki, bu asarni o’qigan donish ahli bilsinlarki, haq qaysi tarafdayu fasod qaysi tarafda. Biri ulkim, karratan sharot urus podshohiga do’stlik yakkajihatligini izhor qilib, (Olloqulixon) hazrati sohibqironga nisbatan g’azab va adovatni targ’ib qilib ishonchli kishilardan maktub yubordi. Shundan so’ng, Rusiyada yurgan Xorazmiya karvonlarini rus xalqi tutib qamadilar, ul hazrat (Olloqulixon) kamoli sabotli va ulug’vor bo’lganlaridan (Nasrulloxonning) bu nuqsonini ko’rmaganga olib, go’yo sezmaganday ayon bosdi” [16].

Xuddi shu voqealarni S.Jukovskiy quyidagicha tasvirleydi: “Buxoro va Xiva hukumatlari o’zaro ixtilofda ekanliklari va o’sha davrda deyarlik urush holatigacha kelib qolganliklarini e’tibordan chetda qoldirib bo’lmasdi. Bu to’g’risida 1830-yili Orenburgga kelgan Buxoro amiri Nasrulloxonning xivaliklarning beadabliklariga birgalikda chek qo’yishda Rossiya imperatoridan yordam so’rash to’g’risida maxsus topshirig’i borligini bildirdi. Rossiya bilan munosabatlar borgan sari taranglashib borayotganligi sababli u bilan to’qnashishdan xavfsiragan Xiva xoni avvaliga buxoroliklardan ko’mak qidirib ko’rishga qaror qildi. Ularni Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishini undan ko’rdi. Lekin Buxoro amiri ittifoq tuzishga rad javobini berish bilan kifoyalanmay, 1830-yilda Buxoro vakili sifatida Rossiyada bo’lgan Boltaqulibek Rahmatbekovni qaytadan elchilikka jo’natdi. U 1838-yilning avgustida Ors istehkomi chegaralariga yetib keldi” [17]. Ogahiy shunday davom etadi: “Yana biri ulkim, Tehron podshohi Muhammadshohga ham Olloqulixon ustidan shikoyat qilib, turli dalillarni keltirib, adovatga targ’ib qilib xat yubordi. Xat bilan yuborilgan elchini Muhammadshohga yetmasdan burun, ul hazrat mulozimlari Xuroson navohisida tutib, xatni tegishli yerga yetkazdilar. Ul hazrat pok fe’l va oqko’ngil tabiyatidan kelib chiqib, xatning mazmuniga yana ahamiyat bermadi, toki bundan ham fasodni u amalga oshirmaguncha”.

Ko’rib turganimizdek, bu davrdagi ikkala davlat o’rtasidagi diplomatik aloqalar va nizolar chegara hamda hududlar borasidagi qarama-qarshiliklar sababli edi.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda Muhammad Rahimxon I dastlabki davrlarda Buxoro bilan munosabatlarni yaxshilagan, lekin 1820-yillarda Buxorodagi ichki isyonlar sabab Marv atroflarini o’ziga bo’ysundirgan. Nasrullo davrida uning Buxoro bilan munosabatlari do’stona davom etgan. Ayniqsa, Olloqulixon davrida tinch qo’shnichilik munosabatlari samimiy tus olgan. Amma 1830-yillardan keyin munosabatlar yomonlashdi. Shunday bo’lsa-da, umrining oxirida qadar Olloqulixon Xiva bilan Buxoro o’rtasida tinchlik o’rnatilishiga sababchi bo’lib turdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. – Toshkent. 2002. 130-bet.
2. Mahmudov M, Sheripov.U. Xiva xonligi tarixi. – Urganch. 2013. 120-bet.
3. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. – Toshkent. 2002. 130-bet.
4. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. – Toshkent. 2002. 65-bet

5. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 85-bet.
6. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 86-bet.
7. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 92-bet.
8. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 92-bet.
9. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 92-bet.
10. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 93-bet.
11. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 94-bet.
12. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 94-bet.
13. Matniyozov M. Xorazm tarixi. – Urganch. 2004. 108-bet
14. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 99-bet.
15. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 155-bet.
16. Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li Ogohiy. Riyoz ud-davla. V jild. – Toshkent. 1978. 155-bet.
17. Жуковский С. Отношения России с Бухоро и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград. 1915.-С. 111.